

BADIIY HAVASKORLIK TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI

1. Sh.K.O`rinov

2. Sh.Ne`matullayeva

1. BuxDU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası o`qituvchisi

2. BuxDU San'atshunoslik fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7619798>

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizda faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarida badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etish hamda ularning auditoriyasini kegaytirishning zamonaviy omillari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: havaskorlik, to'garak, jamoa, madaniyat markazi, auditoriya, so'rovnoma, tanlov. Bugun zamon o'zgarmoqda. Odamlar o'zgarmoqda. Har bir jarayonga fuqarolar o'zlarining reaksiyalarini bildirishlari har bir sohani yangicha qiyofaga kiritishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga undamoqda. Bu jarayonni to'liq nazorat qilish har bir rahbar oldida turgan asosiy masala sanaladi. Odamlar bu soha u davlatda bunday, ana bu soha esa bu davlat bunday deya baho berishga moslashishdi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning "Har bir islohot inson qadri uchun" degan purma'no fikrlari zamirida tub ma'no yotadi. Aynan shu dav'at ham fuqarolarimiz ongiga ijobiy ta'sir eta boshladi.

Xususan madaniyat sohasida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Birgina Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat markazlarining qurilishi borasi o'tgan 5 yil mobaynida 55%ga o'sish kuzatildi. Ularda tashkil etilgan to'garaklar yoshlarni qamrab olish jarayonlari tobora ortmoqda. Shunday bo'lsada, sohada mamlakatimiz bo'ylab sog'lom raqobat bormoqda. O'rta savol tashlaydigan bo'lsak, nima uchun madaniyat markazlarida tashkil etilgan to'garaklarga yoshlarni jalb etish ancha murakkab jarayonligicha qolmoqda? Yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat byudjet mablag'larida qurilish, ta'mirlash ishlari, soha xodimlarining oylik maoshlarini oshirish bo'yicha qonunosti hujjatlar sohaga tatbiq etilayotgan bo'lsada, to'garaklarga aholi ayniqsa yoshlarni jalb qilish ancha sust, hamda jalb etish bo'yicha tatbiq etilayotgan metodlar eskicha.

To'garaklar ular qamrab olgan auditoriyani ma'lum bir yo'nalishda tayyorlaydi. Kimdir unda havaskor sifatida kimdir, kelajakda o'sha yo'nalish bo'yicha yuqori darajaga erishsa, yana kimdir uchundir bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish uchun tuzilgan ijodiy jamoa sanaladi. Savol tug'iladi. Nima uchun yoshi katta insonlar qaysidir bir musiqa asbobida ayniqsa rubobda hech bo'lmasa bir kuyni chalishni biladi? Bunga asosiy sabab ularning bolalik davrlarida ayni to'garaklar bugungi kundagi metod bilan ishlagan. Bunga misol tariqasida hattoki viloyat hokimlari (Navoiy viloyatining sobiq hokimi Qobil Tursunov), tuman hokimlari (Olot tuman hokimi Nargiza Ne'matovalar) va boshqa soha vakillarini olish mumkin. Bunday misollarni ijtimoiy tarmoqlar ko'p bora guvohi bo'lganmiz. Bugun esa ushbu metod hozir yoshlar uchun eskirgan uslub, ya'ni ularni bu metod bilan jalb etishning iloji yo'q. Aytishimiz mumkin, bugun zamon o'zgargan, kompyuter texnologiyalari, android telefon qurilmalari, IT texnologiyalari ularni joyini egalladi. Bir jarayonni yaxshi bilishimiz kerakki, har bir sohaning eng yaxshisi uchungina u sohada non butun bo'ladi. Biz shunchaki havaskor sifatida va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish borasida fikr yuritmoqdamiz.

Badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etishning yangicha metodi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bugungi kunda madaniyat markazlari Vazirlar Mahkamasining 2019 yildagi 264-sonli qarorida belgilangan to'garaklarni tashkil etishga ruxsat berilgan.

Yozma eksperiment sifatida biz to'garak tashkil etish hamda uning auditoriyasini kengaytirish choralari misollar yordamida o'rganamiz.

G'ijduvon tuman "G'ishti" madaniyat markazi misolida. Madaniyat markazida doira to'garagini tashkil etish hamda uning auditoriyasini kengaytirish masalalari

Doira to'garagi shunday to'garak turlariga kiradiki, uni o'rtacha o'rgangan o'quvchi kelajakda o'zini-o'zi moliyalashtirishi mumkin.

-To'garakni tashkil etishdan oldin madaniyat markazi hududi xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy soha obyektlari, hovli-joylarda ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish maqsadga muvofiq. Mazkur ijtimoiy so'rovnomaning sotsiologlar, ishchi guruhlar yoki tuman madaniyat bo'limi rahbari tomonidan shakllantirilgan bo'lim xodimlaridan iborat guruh tomonidan amalga oshirilsa ham bo'ladi. Ishchi guruhi yuqorida qayd etilgan obyektlar so'rovnoma o'tkazib, so'rovnoma yakunida qiziqish bildirgan aholi o'rtasida mazkur to'garakni tashkil etish chorasi ko'riladi. Demak birinchi bosqich bu ishchi guruhi asosida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish.

-tashkil etilishi lozim bo'lgan to'garakga munosib to'garak rahbarini ish bilan ta'minlash. Bunda to'garak rahbarini markaz direktori alohida sinov bilan ishga qabul qilishini ta'minlashi lozim; Demak, to'garak rahbari markaz direktori tavsiyasiga asosan tuman madaniyat bo'limi rahbari tomonidan ishga qabul qilinadi.

-shakllantirilgan guruhdan mazkur to'garakda o'zining iqtidorini hamda qiziqishini namoyon etgan ishtirokchilar saralab olinib, ular ta'lim olayotgan umumta'lim maktabida turli konkurs yoki ko'rik-tanlovlarni tashkil etish. Mazkur ko'rik tanlovlarda mahalla faollari, o'quvchilar (ayniqsa ishtirokchi ta'lim olayotgan guruh), mahalla profilaktika inspektorlarining tomoshabin sifatida ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq; Demak, tanlovlar tashkil etish jarayonini to'garak rahbari muntazam ravishda amalga oshirishi lozim.

-tashkil etilgan ko'rik-tanlovlar yoki konkurslarda albatta madaniyat markazi to'garak ishtirokchisi amaliy jihatdan ustun keladi. (Istisno tariqasida ishtirokchiga motivatsiya bo'lishi uchun sovrinli o'rinlardan birini berish zarur;) Savol tug'ilishi mumkin nima uchun mahalla faollari va profilaktika inspektorlarini mazkur tanlovlarda tomoshabin sifatida qatnashtirish lozim? Sabab yosh iqtidorli o'quvchi uchun maktab rahbari bilan birgalikda mahalla faollari va profilaktika inspektorlari oldida taqdirlanishi o'ziga bo'lga ishonchni oshirishi hamda kelajakda mazkur yo'nalishda muntazam ravishda ishtirok etib borishiga turtki bo'ladi hamda to'garak auditoriyasini kengayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, profilaktika inspektorlari va mahalla faollarining ham yillik ish rejalaridan biri sifatida kiritilgan. Ushbu tanlovda ishtirok etish ular uchun ham manfaatlidir. O'quvchini birinchi ko'rik tanlovda sovrinli o'rinni egallashi uning o'zi uchun ham ota-onasi uchun ham ijobiy ta'sir qiladi. Bunday tanlovlar muntazam ravishda yashash manzilida keyinchalik hududiy tanlovlarda ishtirok ettirish mumkin; Demak, to'garak "umrini uzaytirish" maqsadida mahalla faollari va profilaktika inspektorlarini jalb qilish zarur.

-to'garak ishtirokchisi tanlovlarda ishtiroki davomida erishgan yutuqlariga qarab, unga yaqin bo'lgan bolalar ham mazkur to'garaklarda ishtirok etish omillarini oshiradi; To'garak auditoriyasini maqsadli kengaytirish uchun iqtidorli ishtirokchilari bilan individual ravishda ishlash kerak.

-O'quvchi erishgan bilim va ko'nikmalari asosida to'garakni yaxshi natijalar bilan tamomlagandan so'ng, albatta u istiqomat qiladigan hudud yoki borinki uzoqroq hududlarda ijod qilayotgan san'atkorlar o'quvchiga haq evaziga turli marosimlar, to'y-tantalarga jalb qilish holatlari amaliyotda isbotlangan. Bu esa o'quvchiga xalq tilida "yoshligidan o'z aravasini o'zi tortdi" degan naqlga yaqqol dalil desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqorida qayd etilgan kriteriyalar asosida havaskorlik to'garaklarini zamonaviy metodlari qo'llanilishi mumkin. O'z navbatida mazkur to'garaklar o'quvchilarni bo'sh vaqtini samarali tashkil etishni o'ziga namoyon qilibgina qolmay, o'quvchini madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishi oshirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yilda ilgari surgan beshta muhim tashabbusning birinchisida ana shunday maqsad yotadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. Urinov S. K., Rakhmatova M. The role of culture and art of uzbekistan on a global scale //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
2. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA "AVESTO" NING O'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.
3. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
4. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.
5. KOrinov S., Jahongirova N. O'ZBEKISTONDA TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING RIVOJLANISHI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 161-162.
6. KOrinov S., Raupova M. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MUZEYLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 116-118.
7. KOrinov S. et al. NOANANAVIY MAYDON TOMOSHA DRAMATURGIYASIDA INVERSIYA USLUBI, KOMPOZITSION BIRLIK ASOSI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 113-115.
8. O'rinov S. K., Nurilloeva G. A. TASVIRIY SAN'AT MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 152-156.
9. Davlatova, M. H. (2019). Variability of A spectral Meanings in English. European Journal of Research and Reflection in Educational Science, 7(12.2019), 778-780.
10. Davlatova, M. H. (2020). An Integrative history of Aspectual meanings. JournalNX, 6(04), 17-22.
11. Davlatova, M. H. (2020). Aspectual variability of information culture in the history of the English language. International Journal on Integrated Education, 3(3), 24-28.
12. Davlatova, M. H. (2020). Lexico-semantic Structure and Its Analysis on the Example of Verbs. JournalNX, 6(06), 189-192.
13. Davlatova, M. H. Relation of lexical-semantic structure of verbs in the linguistic essence. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 6(5).

14. Hasanovna, D. M. (2021). SEMANTIC IMPLEMENTATION OF RESULTATIVE STRUCTURES. METHODS, 7(6).
15. Давлатова, М. Х. (2015). The role of songs in learning English. Молодой ученый, (10), 1145-1147.
16. Hasanovna, D. M. (2021). DIFFERENT ASPECTS OF RESULTATIVE STRUCTURES ACCORDING TO THEIR LINGUISTIC ESSENCE. Academics Globe: Inderscience Research, 2 (05), 475-479.
17. Давлатова, М. Х. (2017). Этапы работы с видеотекстами на занятиях Английского языка. Интернаука, (9-2), 16-19.
18. Давлатова, М. Х. (2015). The role of songs in learning English. Молодой ученый, (10), 1145-1147.
19. Khajieva, F. (2020). Genesis and development of stylistic devices classifications. Philology Matters, 2020(3), 30-38.
20. Khajieva, F. M. (2019). Kendjayeva Gulrukh Fatillovna STUDY OF STYLISTIC LEXICOLOGY (2019). TEST Engineering and Management, USA, 4162-4169.
21. Khajieva, F. (2016). The diversity of Viewpoints in Jay Parini's novel. In The Last Station""/"World Science" International Scientific and Practical Conference. UAE Ajman (p. 57).
22. Melsovna, K. F. (2021). Cosmopolitanism through intertextual devices in the postmodern biographical novel. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 156-161.
23. Хажиева, Ф. М. (2019). The manifestation and the function of epistolary technique in the biographical novel "The Last Station" by Jay Parini. Проблемы и достижения современной науки, (1), 71-73.
24. Хажиева, Ф. М. (2022). Поэтика ва риторика бинар оппозицияда. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 193-196.
25. Khajieva, F. (2021). CONCEPTUAL FRAMEWORK OF ALLUSIONS IN THE NOVEL "THE MOOR'S ACCOUNT" BY LAYLA LALAMI. Збірник наукових праць SCIENTIA.
26. Хажиева, Ф. М. (2021). ЖЕЙ ПАРИНИ ИЖОДИДА БИОГРАФИК РОМАН КОНЦЕПЦИЯСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-2).
27. Khajieva, F. M., & Fatillovna, K. G. (2019). Study of Stylistic Lexicology.
28. Khajieva, F. M. (2018). EPISTOLARY TECHNIQUE IN THE BIOGRAPHICAL NOVEL «AVICENNA» BY MAQSUD QORIYEV. ББК 1 P76, 27.
29. Hasanovna, D. M. (2019). VARIABILITY OF ASPECTUAL MEANINGS IN ENGLISH. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7.
30. Hasanovna, D. M. (2021). Linguistic and cognitive features of performing effective actions. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 41-44.
31. Давлатова, М. Х. (2018). РАБОТА НАД ВИДЕОТЕКСТОМ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Теория и практика современной науки, (4), 242-246.
32. Давлатова, М. (2020). ASPECTUAL AND LEXICO-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERBS. Сўз санъати халқаро журналы, 1.